



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№7**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

*Elektron nashr. 202 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.*



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
<b>Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov</b>	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli .....	20
<b>Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich</b>	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili .....	26
<b>Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.</b>	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish .....	31
<b>Yuldashov Isomiddin Sidiqov</b>	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
<b>Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi</b>	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху .....	40
<b>Явкачев Шохзод Зайниддин углы</b>	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector .....	49
<b>Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi</b>	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
<b>Djalilov G'ayrat Qaxramanovich</b>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari .....	66
<b>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</b>	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari .....	71
<b>Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich</b>	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
<b>Salimov Sherzod Baxtiyorovich</b>	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan .....	81
<b>S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
<b>Muxamedov Ravshan Zafarovich</b>	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
<b>Homidov Baxtiyor Rahimberdievich</b>	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
<b>Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li</b>	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash .....	105
<b>Uraqov Shokir Ulashovich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
<b>Istamova Sojida Kaxarovna</b>	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan .....	117
<b>Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna</b>	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari .....	126
<b>Muradov Botir Xayat</b>	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки .....	136
<b>Салимова Юлдуз Исаковна</b>	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance .....	141
<b>Karlibaeva Gulshat</b>	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
<b>Absamatov Anvar Ergashovich</b>	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
<b>С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева</b>	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains» .....	161
<b>Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu</b>	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan .....	169
<b>Nigmatova Malika</b>	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
<b>Sabina Uroкова</b>	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
<b>Daminova Barno Esanovna</b>	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами .....	189
<b>Бегматов Хусанбек</b>	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
<b>Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li</b>	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutSIONAL asoslari.....	197
<b>Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich</b>	





необходимость глубоких институциональных реформ. В статье предлагаются эффективные институциональные механизмы реформирования, включая внедрение цифровых технологий, укрепление системы кредитной информации, совершенствование нормативно-правовой базы и расширение финансовой инклюзии. Также рассматривается международный опыт и возможные модели и подходы, применимые в условиях Узбекистана. В результате раскрываются основные направления формирования надёжной и эффективной системы кредитования физических лиц в условиях устойчивого развития.

**Ключевые слова:** Устойчивое развитие, физические лица, система кредитования, институциональные реформы, финансовая инклюзия, кредитные риски, цифровизация.

## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va moliyaviy xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish borasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, aholining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, jismoniy shaxslar uchun kredit resurslariga erkin kirish imkoniyatini yaratish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa kreditlash tizimining jadal rivojlanishini, ayniqsa jismoniy shaxslar segmenti uchun qulay va barqaror moliyaviy muhitni shakllantirishni taqozo etadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq, moliyaviy sektor faqatgina iqtisodiy o'sishni emas, balki ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillarini ham ta'minlashi lozim. Jismoniy shaxslarni kreditlash tizimi ushbu tamoyillar bilan bevosita bog'liq bo'lib, aholining turmush darajasini oshirish, iste'mol imkoniyatlarini kengaytirish, uy-joy bilan ta'minlanish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu tizimda yuzaga kelayotgan muammolar, xususan kredit tarixining noaniqligi, norasmiy daromadlar mavjudligi, kredit risklarining yuqoriligi va moliyaviy savodxonlikning pastligi kredit bozorining institutsional zaifligidan dalolat beradi<sup>1</sup>.

Mavjud muammolarni bartaraf etish, barqaror va inklyuziv kreditlash tizimini shakllantirish uchun esa chuqur institutsional islohotlar zarur. Bunga, avvalo, moliyaviy institutlararo hamkorlikni mustahkamlash, kredit axborot tizimlarini kuchaytirish, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi mexanizmlarni modernizatsiya qilish, shuningdek, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali erishish mumkin. Bundan tashqari, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, kredit risklarini baholash tizimlarini takomillashtirish va iste'molchi huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilikni rivojlantirish ham dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ushbu maqolada aynan shunday muammolar tahlil qilinib, jismoniy shaxslar kreditlash tizimini barqaror rivojlanish tamoyillari asosida isloh qilish uchun zarur bo'lgan institutsional asoslar, xalqaro tajriba hamda amaliy taklif va tavsiyalar yoritib beriladi. Maqola natijalari moliya sektoridagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda jismoniy shaxslar uchun ishonchli, ochiq va barqaror kreditlash tizimini shakllantirishga hissa qo'shadi<sup>2</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

S. A. Nuriddinov o'z ilmiy tadqiqotida aholi pul daromadini kreditlashga safarbar etish yo'llarini belgilab bergan. Ushbu olim aholi daromadlarini bankga jalb qilib, ushbu mablag'larni kreditlashga yo'naltirish hamaholi, ham tadbirkorlik subyektlari hamda banklarning daromadligini oshishiga olib kelishini yoritib bergan.

Prof. J. Y. Isakovning ilmiy tadqiqotida esa, xizmat ko'rsatish sohasiga kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan lizing xizmatlari uchun undiriladigan ustama foizini lizing obyektiga bahosida hisobga olish va foizli daromadlarni butun foydalanish davri uchun bir xilda taqsimlash, hamda banklarning lizing xizmatidan oladigan foizli daromadi ulushinn lizing oluvchining me'yoriy foydasi hisobidan qoplashning maqsadga muvofiqligini asoslab bergan.

Bu borada muammolarini tadqiq qilishda xorijlik olimlar Gordon J. Alexander, Chzis J. Barltop, William F. Shorpe va rus olimlari O. I. Lavrushin, G. S. Panova, N. Y. Sokolinskaya, V. M. Usoskin, Z. G. Shirinskaya qator ilmiy ishlar olib borgan. Mazkur tadqiqotlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, ular faoliyatida mavjud muammolar, nazariy asoslari kiritilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan tahlil qilish va ularni isloh qilishning institutsional asoslarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Banklar faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar to'plami. Toshkent: Markaziy bank matbuot xizmati.

2 Abdullaeva, M. X. (2022). Jismoniy shaxslarni kreditlash tizimining rivojlanish tendensiyalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 6(2), 58–64.



Ilmiy-tadqiqot ishlari ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, statistik ma'lumotlar tahlili, xalqaro tajriba tahlili hamda ekspert baholash usullariga tayangan holda olib borildi.

Deskriptiv (ta'rifiy) tahlil usuli orqali O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimining hozirgi holati ko'rib chiqildi. Bu jarayonda Markaziy bank, tijorat banklari, Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, Davlat statistika qo'mitasi hamda xalqaro moliyaviy institutlarning rasmiy ma'lumotlari va statistik ko'rsatkichlari asos qilib olindi. Kredit mahsulotlari soni, aholining kreditlardan foydalanish darajasi, kredit portfeli sifati, to'lov intizomi, foiz stavkalari dinamikasi, kreditlash hududiy tafovutlari tahlil qilindi<sup>3</sup>.

Normativ-huquqiy tahlil metodi asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida jismoniy shaxslarni kreditlash bo'yicha amal qilayotgan huquqiy me'yorlar o'rganildi. Bu jarayonda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, "Iste'mol kreditlari to'g'risida"gi nizomlar, Markaziy bankning kredit siyosatiga oid qaror va ko'rsatmalari, kredit axborot almashinuvi tizimlariga oid reglamentlar tahlil qilindi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar ko'rib chiqildi<sup>4</sup>.

Institutsional tahlil usuli orqali kreditlash tizimidagi mavjud institutlar – banklar, kredit byurolari, moliyaviy monitoring organlari, sug'urta va kafolat fondlari, raqamli kredit platformalari faoliyati o'rganildi. Ularning o'zaro hamkorlik darajasi, ma'lumot almashinuvi tizimlari, risklarni boshqarish strategiyalari, shaffoflik darajasi va innovatsion yondashuvlarining samaradorligi tahlil qilindi.


Taqqoslov (komparativ) tahlil usuli yordamida xorijiy mamlakatlar (Germaniya, Janubiy Koreya, Polsha, Qozog'iston va Turkiya) tajribalari bilan O'zbekiston tajribasi qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Bu yondashuv kredit risklarini boshqarish, kredit tarixini yuritish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, raqamlashtirish, hamda institutsional muvofiqlashtirish sohasidagi ilg'or amaliyotlarni aniqlash imkonini berdi<sup>5</sup>.

Ekspert-intervyu va so'rovnomalar metodlari asosida bank sohasi mutaxassislari, moliyaviy institutlar vakillari, iqtisodchilar va moliyaviy savodxonlik dasturlarida ishtirok etayotgan mutaxassislar bilan suhbatlar tashkil etildi. Intervyular orqali kreditlashdagi amaliy muammolar, islohotlarga bo'lgan ehtiyoj va fuqarolar ishonchining omillari aniqlashtirildi.

SWOT-tahlil usulidan foydalangan holda jismoniy shaxslarni kreditlash tizimining kuchli va zaif jihatlari, imkoniyatlari hamda xavflari aniqlab chiqildi. Ushbu tahlil kreditlash tizimi barqaror rivojlanish talablariga mos keladigan yoki kelmaydigan jihatlarni ajratib ko'rsatdi<sup>6</sup>.

Induktiv va deduktiv yondashuvlar yordamida empirik dalillar asosida umumiy xulosalar chiqarildi va takliflar ishlab chiqildi. Deduktiv yondashuv orqali mavjud nazariy konsepsiyalar asosida O'zbekiston tajribasi tahlil qilindi, induktiv usul yordamida esa amaliy holatlardan kelib chiqib ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirildi.

Mazkur metodik yondashuvlar birgalikda qo'llanilishi orqali jismoniy shaxslarni kreditlash tizimidagi institutsional muammolar aniqlandi, islohotlar yo'nalishlari belgilandi hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladigan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi<sup>7</sup> (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning dinamik taqsimoti.

- 3 Qodirov, S. A. (2021). Barqaror moliyaviy tizimni shakllantirishda banklarning institutsional roli. Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, 3(1), 42–48.
- 4 Axmedova, D. R. (2020). Iste'mol kreditlari bozorining rivojlanishida institutsional mexanizmlarning o'rni. Iqtisodiy islohotlar muammolari, 4(2), 91–97.
- 5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. (2022). O'zbekistonda moliyaviy inkluzivlikni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.
- 6 Xasanov, B. T. (2019). Bank tizimidagi raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va muammolar. Bank ishi va moliya, 2(1), 23–30.
- 7 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). Kredit siyosatini isloh qilish bo'yicha konseptual yondashuvlar. Toshkent: Moliya nashriyoti.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari jismoniy shaxslarni kreditlash tizimining barqaror rivojlanish bilan uzviy bog'liqligini yaqqol namoyon etdi. Bugungi kunda O'zbekistonda aholining kreditlarga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotganiga qaramay, tizimda mavjud institutsional zaifliklar ushbu ehtiyojlarni to'laqonli qondirishga ta'sir qilmoqda. Amalga oshirilgan tahlillar asosida bir nechta muhim jihatlar aniqlab berildi.

Jismoniy shaxslar kreditlashining jadal rivojlanishi kredit portfelining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda jismoniy shaxslar ulushidagi kreditlarning tez o'sishi, ayniqsa, iste'mol kreditlari bozoridagi o'sish ortidan ba'zi hollarda to'lovga qodirlik yetarlicha baholanmayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa kreditlar bo'yicha kechikkan to'lovlar va qaytmas kreditlar ulushining ortishiga olib kelmoqda<sup>8</sup>.

Kreditlash tizimining institutsional bazasi yetarlicha rivojlanmagan. Jumladan, mavjud kredit byurolarining qamrovi cheklangan, ma'lumotlar sifati past, ayrim banklar va moliyaviy tashkilotlar o'z mijozlari haqida ma'lumot almashishga tayyor emas. Bu esa kredit risklarini baholashni murakkablashtiradi va noaniqlikni oshiradi.

Raqamli kredit mahsulotlari bo'yicha yutuqlar bo'lishiga qaramay, moliyaviy savodxonlikning pastligi va raqamli xizmatlardan foydalanish darajasining notekisligi tizimning inklyuziv bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda. Aholi, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchilar orasida raqamli kredit xizmatlariga nisbatan ishonch darajasi past bo'lib qolmoqda.


Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarda jismoniy shaxslar uchun kreditlash tizimi kuchli institutsional infratuzilmaga tayanadi. Masalan, Germaniyada kreditlar ekologik va ijtimoiy mezonlar asosida baholanadi, Janubiy Koreyada esa kredit skorlashtirish tizimi sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan bo'lib, qarz oluvchining moliyaviy tarixini, daromadlarini, hatto ijtimoiy faolligini baholash imkonini beradi<sup>9</sup>.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sharoitida ham kreditlash tizimini barqaror rivojlantirish uchun birinchi navbatda institutlararo hamkorlikni mustahkamlash, ma'lumotlar almashuvining shaffof va ishonchli tizimini yaratish muhimdir. Shuningdek, banklararo yagona kredit reyting tizimini joriy etish, fuqarolarning kredit tarixi bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yaratish, raqamlashtirish darajasini oshirish zarur.

Yana bir muhim jihat — kredit xavflarini boshqarish bo'yicha kafolat va sug'urta mexanizmlarining yetarli emasligi. Bu borada aholining ishonchini oshirish va kredit portfelining barqarorligini ta'minlash uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kredit sug'urtasi tizimini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Bu yo'nalishda maktab va oliy o'quv yurtlarida moliyaviy ta'limni yo'lga qo'yish, ommaviy axborot vositalari orqali aholini xabardor qilish va onlayn treninglar tashkil etish barqaror moliyaviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, jismoniy shaxslarni kreditlash tizimi barqaror rivojlanish tamoyillariga mos bo'lishi uchun davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali institutlararo hamkorlik, raqamli infratuzilmaning rivoji, ishonchli kredit axboroti tizimi va moliyaviy savodxonlikni ta'minlaydigan strategik yondashuv zarur<sup>10</sup> (2-rasm).



2-rasm. Jismoniy shaxslarni kreditlash tizimidagi institutsional muammolarning ulushi.

8 Nurmatov, A. R. (2021). Kredit risklarini boshqarishda institutsional muvofiqlashtirishning o'rni. Iqtisodiyot va boshqaruv, 5(3), 75–81.

9 Raxmatova, Z. S. (2020). O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish yo'nalishlari. Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 1(2), 102–108.

10 Jo'raev, M. R. (2021). Jismoniy shaxslar kreditlash tizimida barqarorlikni ta'minlashning muhim omillari. Milliy iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish jurnali, 3(4), 45–51.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanishni ta'minlashda jismoniy shaxslarni kreditlash tizimining isloh qilinishi muhim o'rin egallaydi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy shaxslar segmenti bo'yicha kreditlash hajmlarining oshib borayotganiga qaramay, tizimda institutsional jihatdan ayrim muammolar mavjud bo'lib, ular kredit bozorining barqarorligi, ishonchliligi va inklyuzivligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kredit risklarini yetarli baholamaslik, kredit axboroti tizimining yetarlicha rivojlanmagani, moliyaviy savodxonlikning pastligi, tartibga soluvchi institutlarning o'zaro muvofiqlashtirilmaganligi mavjud tizimning asosiy zaif jihatlari sifatida belgilandi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba tahlili asosida kreditlash tizimida institutsional barqarorlikni ta'minlovchi muhim mexanizmlar aniqlanib, ularni milliy amaliyotga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi:

Kreditlash tizimini barqaror rivojlantirish uchun raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish va avtomatlashtirilgan kredit baholash tizimlarini joriy etish zarur;

Kredit byurolari faoliyatini kuchaytirish, banklar va moliyaviy tashkilotlar o'rtasida ochiq va xavfsiz ma'lumot almashish tizimini shakllantirish kerak;

Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha davlat va nodavlat institutlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish, ta'lim dasturlariga moliyaviy bilimlarni kiritish lozim;

Kredit sug'urtasi va kafolat fondlari faoliyatini kengaytirish orqali aholi va moliya institutlari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash mumkin;

Kredit siyosatini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy bazani xalqaro standartlarga moslashtirish, iste'molchi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mexanizmlarni kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini institutsional asosda isloh qilish orqali nafaqat moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish va umuman mamlakatda barqaror rivojlanishga erishish imkoniyati yaratiladi. Ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan tizimli va kompleks islohotlar O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Banklar faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar to'plami. Toshkent: Markaziy bank matbuot xizmati.
2. Abdullaeva, M. X. (2022). Jismoniy shaxslarni kreditlash tizimining rivojlanish tendensiyalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 6(2), 58–64.
3. Qodirov, S. A. (2021). Barqaror moliyaviy tizimni shakllantirishda banklarning institutsional roli. Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, 3(1), 42–48.
4. Axmedova, D. R. (2020). Iste'mol kreditlari bozorining rivojlanishida institutsional mexanizmlarning o'ri. Iqtisodiy islohotlar muammolari, 4(2), 91–97.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. (2022). O'zbekistonda moliyaviy inkluzivlikni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.
6. Xasanov, B. T. (2019). Bank tizimidagi raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va muammolar. Bank ishi va moliya, 2(1), 23–30.
7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). Kredit siyosatini isloh qilish bo'yicha konseptual yondashuvlar. Toshkent: Moliya nashriyoti.
8. Nurmatov, A. R. (2021). Kredit risklarini boshqarishda institutsional muvofiqlashtirishning o'ri. Iqtisodiyot va boshqaruv, 5(3), 75–81.
9. Raxmatova, Z. S. (2020). O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish yo'nalishlari. Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 1(2), 102–108.
10. Jo'raev, M. R. (2021). Jismoniy shaxslar kreditlash tizimida barqarorlikni ta'minlashning muhim omillari. *Milliy iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish jurnali*, 3(4), 45–51.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>